

## **ISPAN TILINI O'RGANAYOTGAN TALABALARING TINGLAB TUSHUNISH QOBILIYATI VA KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH METODLARI**

**Yangiyeva Zumrad To'lqinovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german filologiyasi Ispan tili yo'nalishi  
3-kurs talabasi

[yangiyevazumrad@gmail.com](mailto:yangiyevazumrad@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada ispan tilini o'rganayotgan talabalarning ispan tilidagi tinglab tushunish qobiliyatlari va ko'nikmalarini yaxshilash va takomillashtirish uchun bir nechta metod va usullar, ulardan qanday foydalanish haqida so'z boradi. Bu ko'nikmalar va metodlar talabalar uchun ispan tilini o'rganishni samarali va oson qilishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** kreativ usul, to'rta kompetensiya, aspekt, video kontent, intonatsiya, fleshkalar, metod, lingvistik kontekstlar, haqiqiy materiallar, intervyu, qayd qilish texnikasi.

**Abstract:** This article discusses several methods and techniques and how to use them to improve Spanish language listening and comprehension skills of Spanish language learners. These skills and techniques can make learning Spanish more effective and easier for students.

**Keywords:** creative methods, four competencies, video content, intonation, flashcards, method, linguistic contexts, authentic materials, interview, recording technique.

**Anotación:** Este artículo analiza varios métodos y técnicas y cómo utilizarlos para y mejorar las habilidades de escucha y comprensión del idioma español de los estudiantes de español. Estas habilidades y técnicas pueden hacer que aprender español sea más efectivo y fácil para los estudiantes.

**Palabras clave:** método creativo, cuatro competencias, aspecto, contenido del video, entonación, flashcards, método, contextos lingüísticos, materiales auténticos, entrevista, técnica de grabación.

### **KIRISH**

Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham chet tillarini bilish ko'nikmasi ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Chet tilini

o'rganishning ahamiyati yurtimizda oldingiga qaraganda o'sib bormoqda va turli tillarni o'rganish va o'rgatishga katta e'tibor berilmoqda. Bunga misol qilib Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 2022-yil noyabr oyida tashkil etilgan "Ibrat farzandlari" loyihasini olishimiz mumkin. Ushbu loyiha doirasida professional ustozlar tomonidan 13 ta til, 22 turdag'i tizimli va noldan boshlangan darslar majmuasi ishlab chiqilgan. Bunda yoshlarga xorijiy tillarni bepul, sodda va kreativ usulda o'rgatish maqsad qilingan. Shu jumladan, bu loyiha ispan tili ham noldan boshlab o'rgatilib boriladi. Bilamizki, ispan tili dunyodagi eng ko'p o'rganilayotgan ikkinchi til bo'lib, uni kamida yigirma ikki million talaba o'rganadi. Bu tilni o'rgatishda bir qancha yoshlari va ispan tili mutaxassislari yangi usul va metodlarini targ'ib qilishmoqda. Har qanday tilni to'rtta kompetensiya asosida o'rgatiladi. Ular orasida tinglab tushunish asosiy o'rinni egallaydi. Tinglab tushunish til o'rganishning muhim aspektlaridan biri hisoblanadi, ayniqsa ispan tilini o'rganayotgan talabalar uchun. Chunki og'zaki ispan tilini tushunish qobiliyati nafaqat samarali muloqotni osonlashtiradi, balki tilda umumiyligi malakani oshiradi. Tinglab tushunish boshqa nutq faoliyatlariga ham yordam beradi. U gapirishning ajralmas qismidir. Tinglab tushunish bilan gapirish ikkalasi og'zaki nutqni tashkil qiladi. Tajribalar ko'rsatadiki, tinglab tushunish rivojlangan sari gapirish qolibiliyati ham yaxshilanishni boshlaydi.

Tinglab tushunish eng tez va oson o'rganilishi mumkin bo'lgan qobiliyat sanaladi. Chunki unga birozgina ko'proq e'tibor qaratilib, zamonaviy, qiziqarli metod va mashg'ulotlardan foydalanib tinglash qobiliyatini yaxshilash mumkin. Bunday usullarning biri bu- **Faol tinglash amaliyoti**. Bu metoddada birinchi bo'lib talabalar ispan tilidagi o'zlariga qiziqarli bo'lgan va o'zlarining til bilish darajalariga to'g'ri keladigan audio va video kontentlar tanlashlari kerak bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi mashhur insonlar nutqi, radio eshittirishlar, kinolar, qo'shiqlar va ispan tilidagi qiziqarli videolar, shular jumlasidandir. Talabalarning asosiy vazifasi shundan iboratki, ular eshitayotgan materiallarini diqqat bilan tinglab turishlari va iloji boricha ko'proq narsani tushunishga harakat qilishlari lozim. Biror bir so'zni tushunmay qolishdan xavotirlanish o'rniga umumiyligi mazmunga hamma e'tiborlarini qaratishlari kerak. Eshitayotgan audiolarini xohlagan paytida to'xtatib, so'zlovchining intonatsiyasiga va talaffuziga taqlid qilgan holda gaplarini takrorlash o'quvchilarning nafaqat turli xil ovoz va talaffuzlarga qulqlarini shug'ullanirishga yordam beradi, balki ularning gapirish qobiliyatlariga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bir necha marta videoni subtitrsiz ko'rgandan keyin uni subtitr bilan ko'rish tavsiya qilinadi, chunki bu o'sha

ma'lumotni yanada yaxshiroq tushunishga va bilmagan so'zlarni o'rganishga imkoniyat yaratib beradi. Iloji bo'lsa talabalar bu faol tinglash amaliyoti metodini ularga ularning tushunishidagi va talaffuzidagi xatolarini aytadigan sheriklari yoki o'qituvchilari bilan birgalikda mashq qilishsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, o'zlarining ovozlarini yozib olib, ispan tilida so'zlovchilarning nutqlari bilan taqqoslash orqali xatolarini bilib olishsa bo'ladi. Doimiy faol tinglash amaliyoti tinglash ko'nikmalarini yaxshilashning kalitidir. Buni kundalik ishlar ro'yxatiga kiritishlari va qiziqarli bo'lishi uchun har xil materiallardan foydalanishlari lozim. Keyingi usul bu **so'z boyligini oshirish**. Kuchli so'z boyligini shakllantirish tinglab tushunish qobiliyatini yaxshilashda muhim ro'l o'ynaydi. Talabalar audiolar eshitayotganlarida yoki video, kinolar ko'rayotganlarida chiqqan yangi so'z va so'z biriklarini doimiy ravishda o'rganib borishga va ularni takrorlab turishga odatlanishlari kerak bo'ladi. Fleshkalar, lug'at ilovalari va so'z o'yinlari so'z boyligini kengaytirish uchun foydali vosita bo'lishi mumkin. **Mashqlar bajarish**. Murakkablik darajasi va daqiqasi har xil bo'lgan audioli mashqlar va savollarni bajarish o'quvchilarning diqqatini oshirishga katta foya keltiradi. Ushbu mashqlar o'quvchilarni turli lingvistik kontekstlarga ochib berish uchun muayyan til tuzilmalari, mavzular yoki urg'ularga e'tibor qaratishi mumkin. Mashqlarni bajarish mobaynida o'quvchilar diqqat markazini bir yerga to'plagan holda bajarishlari lozim. Bajarib bo'lishgandan so'ng esa xatolarini tekshirib, javoblarni tushunib yetmagunlaricha takror va takror eshitishlari kerak bo'ladi. Bu esa ularning audioni yanada yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. **Qayd qilish texnikasi**-bu texnika samarali texnikalardan biri bo'lib, talabalar audiolarni eshitayotgan paytlarida muhim ma'lumotlarni yozib olishlari kerak bo'ladi. Ularga kalit so'zlar va go'yalarini tinglashga, asosiy fikrlarni umumlashtirishga va o'z eslatmalarini tuzilgan formatda tartibga solishga o'qituvchilari tomonidan tushuncha berilishi zarur. Tinglash faoliyati mobaynida qayd qilish texnikasini mashq qilish talabalarning ma'lumotni saqlash va eslab qolish qobiliyatini yaxshilaydi. Tinglab tushunishdagi eng muhim jihatlardan biri bu **haqiqiy materiallardan foydalanishdir**. O'quvchilarni ispan tilidagi haqiqiy materiallardan foydalanishga undash lozim, masalan intervyular, radio eshittirishlar va turli dasturlar, shular jumlasidandir. Haqiqiy materiallar real hayotda foydalanilayotgan tilni aks ettiradi va bu orqali turli xil talaffuzlarni, shevalarni va madaniy kontekstlarni uchratishga muvaffaq bo'lishadi. Bunday materiallardan foydalanish va tahlil qilish ularning bilimlarni yanada chuqurlashtirishlariga ko'maklashadi.

## **XULOSA**

Ushbu maqolada ispan tilini o'rganayotgan talabalarning tinglash qobiliyatini rivojlantirish uchun bir nechta metod va texnikalar berildi va shu o'rinda bu qobiliyat ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Masalan, faol tinglash amaliyoti, so'z boyligini oshirish, tinglashga doir mashqlar bajarish, qayd qilish texnikasi va haqiqiy bo'lgan materiallardan foydalanish kabilarni o'z ichiga oladi. Bu metod va texnikalardan foydalanish orqali, o'qituvchilar o'quvchilarining ispan tilida malakali suxbatdosh va tinglovchi bo'lishlariga imkoniyat yaratib bergan bo'lishadi. Bundan tashqari, ularning tinglash qobiliyatlarni tez va oson usullar bilan oshirishlarida hozirgi kundagi texnologiyalarning katta ahamiyati mavjud.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Zaynidin Sanaqulovning , Baxromjon Joraboyevning “ Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar, 2021
2. Madina Shirova “Tinglab tushunishni rivojlantiruvchi metod va mashqlar”
3. Jalolov. J Chet tili o'qitish metodikasi. “ O'qituvchi”. 2021
4. Zaripova R.A Chet tillari o'qitish metodikasi. “ O'qituvchi nashriyoti”, 1986
5. Lapidus, B.A. Mutaxassislik sifatida ikkinchi chet tilini o'rgatish, 2007
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/tinglab-tushunish-konikmalarini-o-rgatishning-zamonaviy-metodlari>
7. [https://elar.rspu.ru/bitstream/123456789/39154/1/avsorpo\\_2020\\_3\\_070.pdf](https://elar.rspu.ru/bitstream/123456789/39154/1/avsorpo_2020_3_070.pdf)
8. <https://www.ui1.es/blog-ui1/como-ensenar-espanol-extranjeros>
9. <https://www.worldpackers.com/es/articles/como-ensenar-espanol-a-un-extranjero>
10. <https://eleinternacional.com/blog/como-puedo-ensenar-espanol-a-extranjeros-consejos/>